

**Muzeylarda kurgazma tashkil etish**

*Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi hodimi.*

***M Muhamadiyev***

Muzey predmeti kurgazma uchun tanlab olingadan sung, uning tushunchasi bir muncha uzgarib, (ta`lim-tarbiya berish, ta`sir etish) endi u muzey eksponatiga aylanadi. Kurgazmada foydalanilgan barcha materiallar (barcha moslamalar, kumakchi materiallar, muzey eksponatlari) kurgazma materiallari xisoblanadi. Muzey ko`rgazmasining bir-biriga uzaro bog`liq, bir-birini davom ettiriradigan qismlari yaxlit xolda ko`rgazmaning mavzuviy tuzilmasi (strukturasi)deb ataladi. Yuqorida ta`kidlangandek, muzey eksponati, ko`rgazma materiallari va boshqa ko`rgazmani tashkil etadigan barcha materiallar bir-birini to`ldirgan, davom ettirgan yagona g`oyaga xizmat qilgan xoldagi guruxi ko`rgazma kompleksi deyiladi. Muzey kurgazmasini tashkil etishning turli xil uslublari mavjud. Bu uslublar me`moriy, badiiy va loyixachi dizaynerlar tomonidan ko`rgazma xolatiga va shu ko`rgazma kuyiladigan muzey predmetlarining shakli va o`lchamiga qarab tanlanadi. Mana shu uslublar kompleksiga muzey ko`rgazmasini tashkil etish uslublari deyiladi. Muzey ko`rgazmasini ko`rgazma maydonining me`moriy imkoniyatiga qarab ko`rgazmaga quyilgan muzey predmetining shakli va o`lchamiga qarab, shuningdek ko`rgazmaning mavzusidan kelib chiqib muzey ko`rgazmasini ilmiy, memoriy, badiiy loyixasini ishlab chiqish memoriy-badiiy echim deyiladi. Ba`zi xolatlarda mavzuning dolzarbligiga karab yoki biror-bir tarixiy voqya, sana, yubiley munosabati bilan vaqtinchalik ko`rgazmalar tashkil etiladi. Bunday ko`rgazmalar katta maydonni egallamasligi va fakat muxim mavzuni yoritib berishda axamiyatga ega bo`lgan muzey predmetlaridan tashkil etilishi bilan xarakterlanadi. Lekin shunday bulsada, vaktinchalik kurgazmalarning katta ta`lim-tarbiyaviy xamda targ`ibot kuchi ta`siri beqiyos buladi.

Muzey ko`rgazmasi ilmiy konseptsiyasi asosida tashkil etilishi, u tarixiy muzeylarda tashkil etilganda tarixiylik xolislik, ilmiylik talablariga javob bera olishi va dialektik uslubga asoslanishi kerak. Muzey ko`rgazmasi xronologik ketma-ketlikda va xolik yoritilishi xamda yuz bergen voqealarning sabab oqibatini boshqa tarixiy voqealar bilan sabab va oqibatda uzaro bog`liqlik va uzaro rivojlananganligini ko`rsatib berishi keark.

Muzey ko`rgazmasini tashkil etayotganda jamiyatning tarixiy bilimlaridan qanchalik xabardorligi saviyasiga axamiyat berish va ko`rgazmani ilmiy saviyasiga asosan o`rta me`yordagi tashrif buyuruvchilar uchun mo`ljallangan bulishi kerak. Ko`rgazma tashrif mavzusidan jamiyatning xabardorlik saviyasi xar bir mavzu uchun turlicha bulishi tabiiy. Buni urganish va ko`rgazmani ilmiy jixatdan o`ta murakkab bo`lib ketmasligiga axamiyat berish kerak. Muvzuning ilmiy jixatdan murakkab tomonlarini maxsus ilmiy konferentsiyalarda, seminarlarda urganish va namoyish etish ma`kul.

Mavzu ko`rgazmasini tashkil etishda uni mavzuviy va kompleks mavzuviy tizimini ishlab chiqish va muzey predmetlarini shu asosda tashkil etish va joylashtirish kerak. Muzey ko`rgazmasi mavzuni ochib berishda, ta`sirchanlikda va kurgazma mavzusiga oid bulgan dvar ruxi va muxitni tashrif buyuruvchilarga singdirishda tasviriy predmetlarning axamiyati katta. Tasviriy predmetlar mavzu uchun ko`p xollarda faktik dalil, isbotlovchi manba sifatida xizmat qilmasligi mumkin. Lekin shunday xollar xam buladiki, ular yagona ishonchli isbotlovchi manba bo`lishi mumkin. Bunday xollarda ko`pgina musavvirlarning uz kuzi bilan ko`rganlari asosida chizgan suratlari va fotosuratlar bilan yuz berishi mumkin. Misol uchun Samarkanddagi Mirzo Ulugbek madrasasining xozir mavjud bo`lmagan turtinchi minorasi, uni uz kuzi bilan ko`rgan rus musavviri Verishchagin suratlarida saqlanib qolgan.

Shuningdek, muzey ko`rgazmasi mavzuga mos keladigan biror kuy, zarur bulsa shovqin yoki ovozlar fonoyozuvi xalaqit bermaydigan darajada eshittirib turilsa yanada katta samara beradi, ta`sirchanlik keskin ortadi.

Muzey ko`rgazmasini tashkil etishda yordam beradigan ko`makchi materiallar. Bular safiga asosan ko`rgazma tashkil etishda foydalanilgan zarur moslamalar, mebellar va boshqalar kiradi. Ko`makchi materiallar xatto, zarur xollarda, muzeyga tegishli bulmasligi xam mumkin.

Muzey ko`rgazmasining ilmiy-ko`makchi materiallari. Bular safiga asosan muzey fondlarida saqlanayotgan va shu ko`rgazma mavzusiga daxldor bo`lgan ilmiy-ko`makchi materiallar kiradi. Ular ko`rgazma mavzusini yoritishda yordam beradigan xaritalar, turli chizmalar, diogrammalar bulishi mumkin.

Muzey ko`rgazmasida namoyish etilayotgan eksponatlar va ko`rgazma mavzusini yoritishda, tanishtirishda turli yozma matnlardan va fonosharxlardan foydalanish mumkin. Lekin bu matn va fonosharxlarning yozma va fono manbalardan farqi shuki, ular dalin, isbotlovchi manba emas, balki, faqat sharx beruvchi, izoxlovchi kuchga egadir.

Shuningdek, ko`rgazma materiallariga turli ko`rsatkichlar xam kirishi mumkin. Ularda ko`rgazma maydonining tuzilishi va yunalishlari kursatiladi.

Muzey ko`rgazmasining ilmiy loyixalarda butun muzey jamoasi va zurur xollarda maxsus chaqirilgan yordamchi mutaxassislar ishtiroy etadi. Muzey kurgazmasining ilmiy loyixalash uch yunalishda olib boriladi:

Fond bulimlarida muzey ko`rgazmasini ilmiy loyixalash va tayyorlash quyidgi jarayonda amalga oshadi. Bu yunalishda dastlab muzey predmetlarining ko`rgazma mavzusiga oidlari tanlab olinadi. So`ngra qayta tiklash bo`limiga o'tgazilgan muzey predmeti bu erda obdon tekshirilib, zarur bulsa kayta tiklash tadbirlari olib boriladi. Shundan keyin muzey predmeti bilan ekuskursavod tanishtiriladi va u bilan mashgulotlar utkaziladi. Ko`rgazma komissiyasi shundan sung muzey predmetini qabul qladi va sunggi nazorat-taftish utkaziladi. Ya`ni muzey predmetini ko`rgazmada qanday sharoitda, qancha muddat turishi mumkinligi belgilanadi.

Mavzuni ilmiy urganish va tayyorlash. Dastlab kurgazma mavzusiga oid manba va adabiyotlar urganib chiqiladi. Bu ilm fond bulimlarida, kutubxonalar, arxivlarda olib boriladi. Ya`ni mavzu tuliq o`rganiladi. Shundan sung mavzuning

anik shakli va ilmiy konseptsiya yaratiladi. Navbatdagi ish mavzu tuzilmasini (struktura) va mavzu rejalarini ishlab chikish buladi. Mavzu rejalarini tuzishda katrotekalarni urganish zarur. Katrtotekalar yordamida tuzilgan mavzuviy rejalar asosida muzey predmetlari va yordamchi materiallar tanlanadi, shuningdek ilmiy-kumakchi materiallar tayyorланади. Sungra u yukoridagilardan kelib chikib mavzuning ko`rgazmaviy rejasi tuziladi. Aynan shu kurgazmaviy reja asosida yul kursatkichlar, ma`ruza matnlari va me`moriy-badiiy echim loyixasi tuziladi.

Shu reja asosida ekuskursovodlar bilan mashgulot o`tkazilib, kurgazma mavzusini ilmiy urganish va tayyorlash nixoyasiga etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Столяров Б.А. Музейная педагогика. История, теория, практика. – М.: Высшая школа, 2004.
2. Юренева Т.Ю. Музееведение. – М.: Академпроект, 2003.
3. архив.уз